

**BUXORADAGI CHOR BAKR ME`MORIY MAJMUASINING XVI-XIX
ASRLARDAGI TARIXI**

Amonova G.A.

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq Davlat Universiteti 2-kurs talabasi
gulbadanbegimamonva@gmail.com

Ilmiy rahbar: **Madreymov B.D.**
Arxeologiya kafedrası dotsenti PhD.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15643774>

Annotatsiya: *Chor Bakr majmuasi asosan Buxoro hududida joylashgan hisoblanadi. Bu yer avval darveshlarning kichik manzilgohi bo‘lgan. Hozirgi kunda Chor Bakr Markaziy Osiyodagi eng yirik nekropol hisoblanadi. Chor Bakr majmuasining asosiy qismi Abdullaxon II tomonidan qurilgan*

Kalit so‘zlar: *Sumitan, Chor Bakr, Abu Bakr Sa‘d Yamaniy, Hazrat Abu Bakr Homid, Hazrat Abu Bakr Muhammad ibn Fazl, Hazrat Abu Bakr Tarxon, "To‘rt birodar".*

Chor Bakr majmuasi Buxoro shahridan 6 km g‘arbda joylashgan bo‘lib, bu hududning qadimiy nomi Sumitandır. “G‘iyosul-lug‘at” kitobida yozilishicha Sumitan so‘zining ma‘nosi “jundan mato to‘quvchilar yashaydigan joy” degan ma‘noni anglatadi. X asrda Sumitan qishlog‘iga Buxorodan Xodsharun nomli darvoza orqali o‘tib borilgan. Xodsharun darvozasi XV–XVI asrlarda Talipoch ya‘ni “Xon tepaligi” deb nomlangan. To‘rtta buyuk avliyo – Hazrat Abu Bakr Sa‘d Yamaniy (vaf. 970), Hazrat Abu Bakr Homid (vaf. 937), Hazrat Abu Bakr Muhammad ibn Fazl (vaf. 991), Hazrat Abu Bakr Tarxon (vaf. 945) sharofatlaridan bu mavze Chor Bakr, ya‘ni to‘rtta Bakr deb atalgan.

Abu Bakr Axmad ibn Xoja Sa‘d Yamaniy (IX asr oxiri — 971) — Buxoroda tug‘ilgan. Uning otasi Xoja Sa‘d Yamaniy imom Husaynning Zaynulobidin ismli o‘g‘lining farzandi bo‘lib, u Buxoroga Ali ibn al-Husayn bilan birgalikda kelib ketgan (IX asrning so‘nggi choragi). Narshaxiyning yozishicha, Somoniylar amiri Ismoil Somoniy unga Buxoro yaqinidagi Jo‘yi Mo‘liyon mavzeidagi serhosil yerlarning katta qismini vaqf qilib bergan. Xoja Sa‘d Buxoro atrofidagi Sumitan qishlog‘ida chorbog‘, bog‘, sardoba, tegirmon, hovuz va boshqa binolar barpo etib, bu yerdan katta daromad olgan. Abu Bakr Sa‘d va uning avlodlari somoniylar davrida Buxoroda shayxulislomlik qilishgan. Abu Bakr Sa‘d otasi vafot etgach, uning o‘rniga Ismoil Somoniyning piri hisoblangan. U fiqh maktabini tashkil etib, ko‘plab ulamolarga ustozlik qilgan. [1 C 57-60]

Chor Bakr majmuasini tomosha qila turib, beixtiyor bundan bir necha asr oldingi davrga tushib qolgandek bo‘lamiz. Uning bunyod etilish tarixi, ilmiy

asoslariga qiziqamiz. Ma'lum bo'lishicha, Chor Bakrdagi binolar XVI—XIX asrlarga mansub. Obidada 26 ta hovli, darvozaxona, peshtoqlar, madrasa, masjid-xonaqoh, hammom, dam olish hujralari, hovuz, darsxona, mutolaxonalar yaxlit bir ansamblni tashkil qiladi. Ayniqsa, bu yerdagi xonaqoh, madrasa va masjid me'morchilik ansamblining noyob namunalari bo'lib, ularni bunyod etgan me'morlar ismi noma'lum. Peshtoq bezagida koshinkori naqshlar va yirik kufiy yozuvlar, 2 yon qanotida guldastalar bor. Ichki bezagida ganchkorlik va qirma namunalari uchraydi. Madrasa peshtog'i kengroq, dahanasi uch ravoqqa bo'lingan. Kitobasi arabiy yozuvdan iborat.[2 C 110-111]

Ammo tarixchi Hofiz Tanish Buxoriyning yozishicha, “Xon hazratlarining arkoni davlati va ayonlari, xususan, o'sha vaqtda oliy muhrdorlik mansabida bo'lgan Amir Xalifa mazkur imoratlarni bitirishda tamoman ehtimom (g'ayrat, himmat) ko'rsatdi”.

Majmuaga qo'shimcha binolar sifatida xazira va dahmalar qurilgan. Bu o'rinda “xazira” — “xazon bo'lganlar”, “xobidagon” esa “abadiy uyquga ketganlar” ma'nolarini anglatadi. Obidada 10 dan ortiq xazira bo'lib, ularning har birida ko'plab qabrlar mavjud. Masalan, Sa'dullo xo'ja xazirasi ichida 110 ta qabr bor.

Obidaning nomi ham o'sha davrlarga borib taqaladi. Majmuaning eng qadimiy qismi X asrda shakllangan bo'lib, uning nomlanishi shu yerda dafn etilgan islom olamining ko'zga ko'ringan vakillari, hadisshunos va fiqh ilmining bilimdonlari bo'lmish CHor Bakr, ya'ni to'rta Bakr tarixi bilan bog'liq. [4 C 89-97]

Tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatadiki, chor Bakr, ya'ni to'rta Abu Bakrlar xususida yakdil fikr mavjud emas. Biroq, X asrda yashab, mazkur majmuada dafn qilingan va Buxoro xoni Abdullaxon II (XVI asr) davrida chor Bakr majmuasining qurilishiga sabab bo'lgan dastlabki ikki Abu Bakr borasida shak-shubha yo'q. Bular Abu Bakr Sa'd Yamaniy hamda uning o'g'li Abu Bakr Ahmad ibn Sa'dlardir.

Manbalarda keltirilishicha, “Abu Bakr” aslida ism emas, balki nisba (unvon, laqab, kuniya)dir. Uning arab tilidan tarjimasi “Bakr otasi” yoki “Bakr avlodi” ma'nolarini beradi. Abu Bakr Siddiqdan keyin Payg'ambarning boshqa avlodlari, jumladan, Imom Husaynning o'g'li xo'ja Abu Bakr Sa'd ham “Abu Bakr” nisbasini qabul qilgan.X asrda “Abu Bakr” unvoni bilan mashhur bo'lgan imomlar orasida bir nechtasining nomlari tarixiy manbalarda ko'p tilga olinadi.

U yerda birinchi bo'lib hukmdorning ustozlari Xo'ja Muhammad Islom dafn etilgan, u ham zodagonlar oilasiga mansub edi. O'ttiz yil o'tgach, uning o'g'li va bir muncha vaqt o'tgach, yana ikki oila a'zosi o'sha maqbaraga dafn qilindi. “Bakr” unvonini olgan bu to'rt kishi bir qabrda dafn etilgan. “Bakr” so'zi “birodar” degan

ma’noni anglatadi. Chor-Bakr majmuasining nomi esa “To’rt birodar” deb tarjima qilinadi.

Chor-Bakr nekropolida maqbaralar qurilmagan, bu yerda XVI asr boshlarida me’moriy ko’rinishi shakllangan monumental dafn inshootlari – xazira keng tarqalgan. Majmuaning markazi besh xil qismdan iborat ansamblidir. Kichik madrasa va masjid o’ziga xos gumbazli inshootlarga ega. “U” harfi shaklida joylashtirilgan uchta bino o’ziga xos hovlini tashkil qiladi. [3 C 79-80]

Bu hovli oldidagi markazda kichik minora joylashgan. Majmua hovuz bilan tugallanadi. Devor va ravoqlarning old tomon devorlari o’sha davrga xos figurali tosh va naqshlar bilan bezatilgan. XX asr boshlarida binolar majmuasiga Buxoroning mashhur Kalon minorasiga o’xshab ketadigan kichik minora qo’shilgan. Nekropolning shimolida XVI asrda qurilgan katta bog’ bor. Bu yerda mevali daraxtlardan tashqari sarv, tol, qarag’ay, chinor, xushbo’y atirgullar o’sadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Imom Abu Bakr Tarxon (9-asrning 2yarmi — 945) — "Kitobi Mullazoda" asarida yozilishicha, u "Jome' va musnad" kitobini yozgan.
2. Ражабов Қ, Иноятов С. Бухоро тарихи. Тошкент: Тафаккур нашриёти, 2016 — 460-bet. ISBN 978-9943-24-119-0.
3. Хусенов С, Ражабова И. Чор Бакр. Тошкент: Шарқ нашриёти, 2001 — 144-bet.
4. Narshaxiy, Buxoro tarixi, T., 1966;